



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



ETNOPEdagogik MUHITDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAgi BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Murodova Farangis G'anisherovna

Alfraganus Universiteti "Pedagogika" kafedrası v.b dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi (5–6 yosh) bolalarning nutqini rivojlantirishda etnopedagogik muhitning ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Milliy folklor, xalq og'zaki ijodi, an'anaviy o'yinlar va mahalliy madaniy muhitning bolalar nutqini shakllantirish jarayonidagi o'rni ochib beriladi. Etnopedagogik yondashuv asosida ishlab chiqilgan amaliy model maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: etnopedagogika, nutq rivojlanishi, maktabgacha katta yosh, xalq og'zaki ijodi, folklor, milliy o'yinlar, lug'at boyligi, dialogik nutq, monologik nutq, maktabgacha ta'lim muassasasi.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the significance of ethnopedagogical environment in the speech development of senior preschool-aged children (5–6 years). The role of national folklore, oral folk art, traditional games, and local cultural environment in shaping children's speech is examined. A practical model developed on the basis of an ethnopedagogical approach is recommended for implementation in preschool educational institutions.

Key words: ethnopedagogy, speech development, senior preschool age, oral folk art, folklore, folk games, vocabulary, dialogic speech, monologic speech.

Аннотация: В данной статье анализируется значение этнопедагогической среды в развитии речи детей старшего дошкольного возраста (5–6 лет) с научно-теоретической и практической точек зрения. Раскрывается роль национального фольклора, устного народного творчества, традиционных игр и местной культурной среды в процессе формирования речи детей. Практическая модель, разработанная на основе этнопедагогического подхода, рекомендована для применения в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: этнопедагогика, развитие речи, старший дошкольный возраст, устное народное творчество, фольклор, народные игры, словарный запас, диалогическая речь, монологическая речь.

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida har bir xalq o'z farzandlarini tarbiyalashda ona tilining boyligiga, mahalliy madaniyat va an'analarga tayanib kelgan. Etnopedagogika - bu xalqning asrlar davomida to'plagan tarbiyaviy tajribasi, urf-odatları, marosimlari, folklori va milliy o'yinlaridan tarkib topgan tabiiy ta'lim-tarbiya tizimidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishda aynan ushbu etnopedagogik muhit beqiyos imkoniyatlar zaxirasini namoyon etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy maktabgacha ta'lim amaliyotida texnologik vositalarga ortiqcha urg'u berilishi natijasida bolalarning milliy til va madaniyat bilan muloqoti tobora kamayib bormoqda. Bunning oqibatida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda lug'at boyligi yetarlicha rivojlanmay qolish, dialogik nutqda qiyinchiliklar va og'zaki ifodalash mahoratining sustligi kuzatilmoqda. Ushbu muammo O'zbekiston maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) uchun ham dolzarbdır.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bolalarni milliy qadriyatlar, ona tili va xalq madaniyati ruhida tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu strategik yo'nalish etnopedagogik muhitning MTMlarda faol qo'llanilishini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash zaruriyatini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi: etnopedagogik muhitning maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonidagi o'rnini va mexanizmlarini nazariy asoslash hamda amaliy tatbiq modelini ishlab chiqishdan iborat.

Etnopedagogika tushunchasi ilmiy muomalaga G.N.Volkov (1974) tomonidan kiritilgan bo'lib, u xalq pedagogikasini "xalq tomonidan, xalq uchun, xalq ichida vujudga kelgan va amalga oshiriladigan tarbiya tajribasi" sifatida ta'riflagan.

O'zbek etnopedagogikasini o'rganishga Sh.A.Hasanov, O.Hasanov, M.Yo'ldosheva, T.Usmonov va boshqalar muhim hissa qo'shgan. Ular o'zbek xalq pedagogikasining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashgan: maqollar va matallar, ertaklar va dostonlar, tez aytishlar va topishmoqlar, milliy o'yinlar, qo'shiqlar va allalar, marosim matnlari va an'anaviy suhbat shakllari.

Nutq rivojlanishining psixologik asoslarini A.R.Luriya (1976) va L.S.Vigotskiy (1956) ishlab chiqqan.

Vigotskiyning "fikr - ichki nutq" konsepsiyasiga ko'ra, bola tashqi nutq muhiti bilan muloqot qilish orqali ichki tafakkurini shakllantiradi. Binobarin, bolaning qanday nutq muhitida bo'lishi uning kognitiv va lingvistik rivojlanishini bevosita belgilaydi. Etnopedagogik muhit esa bu nuqtayi nazardan ayniqsa qimmatlidir - chunki u bolaga ona tilining eng sof, eng boy va eng tabiiy shakllarini taqdim etadi.

A.N.Leontiev (1977) faoliyat nazariyasi nuqtayi nazaridan bolaning nutq rivojlanishi uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan faol o'zaro ta'siri jarayonida sodir bo'ladi. Xalq o'yinlari, marosim va bayram tadbirlari, qo'shiq va ertaklar - bularning barchasi bolani kommunikativ faoliyatga jalb etuvchi, uning nutqini tabiiy holda rivojlantiruvchi shart-sharoitlardir.

Tadqiqotchi K.D.Ushinskiy esa "ona tili - xalqning ruhidir" degan mashhur iborasida milliy tilning bolani shaxs sifatida shakllantirishdagi markaziy o'rnini ifodalab bergan.

D.B.Elkonin (1978) maktabgacha katta yosh (5-6 yosh) bolalar nutqini rivojlantirishning uchta asosiy yo'nalishini ajratadi:

- *birinchisi* - lug'at boyligining miqdoriy va sifatiy kengayishi (6 yoshga qadar bola faol lug'atida 3000-3500 so'z bo'lishi zarur);
- *ikkinchisi* - grammatik tuzilmalarning mustahkamlanishi va murakkablashuvi;
- *uchinchisi* - dialogik va monologik nutqning izchil rivojlanishi.

Ushbu uch yo'nalishning barchasida etnopedagogik vositalar samarali ta'sir mexanizmi vazifasini bajarishi mumkin.

Etnopedagogik muhit bolaning nutqini rivojlantirishda bir necha o'zaro bog'liq vazifalarni bajaradi. Leksik boyitish vazifasida xalq ertaklari, maqollar va topishmoqlar bolaning so'z boyligini tematik va emotsional jihatdan boyitadi. Masalan, o'zbek xalq ertaklarida tabiat, mehnat, axloqiy qadriyatlar, kasb-hunarlar bilan bog'liq boy leksika mavjud bo'lib, bu so'zlar bolaning faol lug'atiga tabiiy yo'l bilan kiradi.

Fonetik-intonatsion rivojlanish vazifasida xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari - allalar, bolalar qo'shiqlari, tez aytishlar - bolaning talaffuz madaniyatini, intonatsion ifodaliligini va nutq nafasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbek xalq tez aytishlari ("Tarvuz aravaga to'la, aravacha ham to'la...") bolaning artikulyatsion apparatini mashq qildiruvchi eng samarali fonetik vosita hisoblanadi.

Kommunikativ nutq rivojlanishi vazifasida an'anaviy milliy o'yinlar ("Oq terak, ko'k terak", "Daryo kechib o'tish", "Latta choptirma") bolalar orasida dialogik muloqotni tabiiy holda shakllantiradi. O'yinda ishtirok etish uchun bola o'yin qoidalarini tushuntirishi, hamdo'stlari bilan kelishishi, o'z fikrini ifodalashi kerak bo'ladi. Bu esa dialogik nutqning eng tabiiy va motivlashtirilgan mashq shaklini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Monologik nutq rivojlanishi vazifasida bola tomonidan ertakni qayta hikoya qilish, marosim matnlarini yodlash va shu asosda yangi matn tuzish monologik nutqning izchil ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalq ertaklarining o'ziga xos kompozitsion tuzilmasi - kirish, asosiy qism, xulosa - bolaga matn qurishning tabiiy modelini taqdim etadi.

O'zbek milliy kalendar va marosim madaniyati - Navruz, hosil bayrami, to'y an'analari - bolani ritmik, formulali va ifodalik jihatdan boy nutq namunalari bilan ta'minlaydi. Marosimlar davomida ishlatiluvchi maxsus so'z birikmalari, muborakbodlar va tabriklar bolaning nutq madaniyatini boyitadi hamda unga tilning ijtimoiy funksiyalarini anglashga yordam beradi.

MTMLlarda etnopedagogik muhit asosida nutqni rivojlantirish uchun quyidagi integrativ model taklif etiladi. Model to'rtta o'zaro bog'liq yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Birinchi yo'nalish - "Milliy folklor ko'zgusi" mashg'ulotlari tizimi. Haftasiga ikki marta o'tkaziladigan bu mashg'ulotlarda tarbiyachi har safar bir folklor janriga (ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, alla) e'tibor



qaratadi. Mashg'ulot strukturasi: tinglash, tahlil qilish, qayta aytib berish va o'z hayoti bilan bog'lash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Nutq rivojlanishi ko'rsatkichi sifatida bolaning qayta hikoya qilish to'liqligi, leksik turlanish va intonatsion ifodalilik baholanadi.

Ikkinchi yo'nalish - "Milliy o'yinlar akademiyasi". An'anaviy o'zbek bolalar o'yinlari ("Oq terak, ko'k terak", "Besh tosh", "Ko'r-ko'rona", "Zang") haftasiga uch marta erkin o'yin vaqtida va rejalashtirilgan faoliyatlarda qo'llaniladi. O'yinlar dialogik nutq, topshiriqlarni tushunish va ifodalash, hamkorlikda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchi yo'nalish - "Ona tilim - boyligim" leksik-grammatik mashqlar to'plami. Milliy mavzularga oid (kasb-hunarlar, tabiat hodisalari, milliy taom va kiyimlar, marosimlar) rasmlar, modellar va predmetlar yordamida lug'at boyitiladi. Bolalar yangi so'zlarni semantik maydonda joylashtirishni, sinonimlar va antonimlarni qo'llashni o'rganadi.

To'rtinchi yo'nalish - oila va MTM hamkorligi. Ota-onalarga bolalar bilan uyda milliy ertaklar o'qish, maqollar yodlash, an'anaviy o'yinlar o'ynash bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi. Oylik "Milliy kashtachilik" nomli ijodiy tanlovlar orqali bolalar oilada eshitgan ertak yoki qo'shiqni MTMda aytib beradilar. Bu yondashuv "ta'lim uzluksizligi" tamoyilini ta'minlaydi.

Taklif etilgan model 2023–2024 o'quv yilida Buxoro viloyatining №18 va №34 MTMlarida tajriba sifatida qo'llanildi. Tajriba guruhiga 24 nafar, nazorat guruhiga 22 nafar 5–6 yoshli bola jalb etildi. O'quv yili boshida va oxirida nutq rivojlanishi darajasi O.S.Ushakova metodikasi bo'yicha baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar shuni ko'rsatkichi: tajriba guruhida faol lug'at hajmi o'rtacha 29,6% ga oshgan bo'lsa (nazorat guruhida 10,4%), dialogik nutq ko'rsatkichi 31,2% ga yaxshilangan (nazorat guruhida 11,8%). Monologik nutq - ertakni qayta hikoya qilish to'liqligi - tajriba guruhida 34,5% ga ko'tarilgan, nazorat guruhida esa 13,2% ni tashkil etgan. Intonatsion ifodalilik va nutq madaniyati ko'rsatkichlari ham tajriba guruhida statistik jihatdan yuqori bo'ldi ($p < 0,05$).

Sifat tahlili shuni ko'rsatkichi: tajriba guruhidagi bolalar nutqida milliy leksika (maqol, topishmoq, o'yin so'zlari) faolroq qo'llana boshlagan, nutq ritmi va ohangdorligi yaxshilangan, hamdo'stlari bilan muloqotda o'zini erkinroq his qilgan. Ota-onalar so'rovnomasida esa bolalarning uyda ham ertaklar so'rashi, maqollarni katta odamlar bilan aytishishi kabi ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Etnopedagogik muhit maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda tabiiyligi, emotsional boyligi va milliy-madaniy ildizlari bilan an'anaviy ta'lim metodlaridan ajralib turadi. Xalq folklori, milliy o'yinlar va marosim madaniyati bolaning leksik, fonetik, grammatik va kommunikativ rivojlanishini bir vaqtda ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- MTM tarbiyachilari uchun etnopedagogik metodlar bo'yicha malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilsin;
- MTM rivojlanish muhiti milliy ertaklar, topishmoqlar va o'yinlarni o'z ichiga olgan "Xalq ko'zgusi" burchagi bilan to'ldirilsin;
- maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislar tomonidan viloyat va hududiy xalq ijodiyoti materiallarini tizimlashtirgan metodika to'plamlari nashr etilsin;
- ota-onalar bilan ishlash tizimiga etnopedagogik yo'nalish majburiy modul sifatida kiritilsin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, globallashtiruvchi sharoitida milliy til va madaniyat qadriyatlarini bolaga tabiiy yo'l bilan singdirish - bu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy mas'uliyatdir. Etnopedagogik muhit shunday mas'uliyatni amalga oshirishning eng samarali, eng tabiiy va eng insoniy vositasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Волков Г.Н. Этнопедагогика. – Чебоксары: Чувашское издательство, 1974. – 376 с.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1996. – 352 с.
4. Лурия А.Р. Основы нейролингвистики. – Москва: МГУ, 1975. – 255 с.
5. Эльконин Д.Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978. – 304 с.

6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1977. – 304 с.
7. Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. – Москва: Институт психотерапии, 2001. – 256 с.
8. Ушинский К.Д. Родное слово. Собрание сочинений. Т. 6. – Москва: Педагогика, 1988. – 428 с.
9. Hasanov Sh.A. O'zbek xalq pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 192 b.
10. Musayeva N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 178 b.
11. Yo'ldosheva M.Sh. Maktabgacha ta'limda milliy o'yinlarning ahamiyati // Maktabgacha ta'lim. – 2021. – №4. – B. 18–24.
12. Qodirov N.B. Xalq og'zaki ijodining bolalar nutqiga ta'siri // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – №2. – B. 33–41.
13. Usmonov T.A. Etnopedagogik yondashuv asosida bolalarni tarbiyalash metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 204 b.
14. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Формирование лексики и грамматического строя у дошкольников. – Санкт-Петербург: Союз, 2001. – 224 с.
15. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat o'quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2018. – 184 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.